FARMASEVTIKA KORXONALARIDA BIZNES JARAYONLARI HISOBINI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MASALALARI

Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instiuti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Maqolada farmasevtika korxonalarida biznes jarayonlari buxgalteriya hisobini yuritishning dolzarb jihatlari, ushbu korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishning boshqa tarmoq korxonalaridan ajralib turuvchi o'ziga xos belgilari tadqiq etilgan bo'lib, farmasevtika korxonalarida daromad va xarajatlar buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning dolzarb jihatlari asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *farmasevtika faoliyati, farmasevtika korxonalari, daromadlar buxgalteriya hisobi, xarajatlar buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.*

Аннотация. *В статье исследованы актуальные аспекты ведения бухгалтерского учета на фармацевтических предприятиях, а также особенности бухгалтерского учета на данных предприятиях, отличающие их от предприятий других отраслей. Обоснованы актуальные аспекты организации и ведения бухгалтерского учета доходов и расходов на фармацевтических предприятиях.*

Ключевые слова: *фармацевтическая деятельность, фармацевтические предприятия, бухгалтерский учет доходов, бухгалтерский учет расходов, международные стандарты финансовой отчетности.*

Annotation. *The article examines the relevant aspects of maintaining accounting records at pharmaceutical enterprises, as well as the specific*

features of accounting at these enterprises that distinguish them from enterprises in other sectors. The article also substantiates the relevance of organizing and maintaining accounting for income and expenses at pharmaceutical enterprises.

Keywords: *pharmaceutical activity, pharmaceutical enterprises, accounting of income, accounting of expenses, international financial reporting standards.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Dori vositalari va tibbiy jihozlar muomalasini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”[1]gi Farmoni 2025 yil 19 avgustda qabul qilingan bo‘lib, unda belgilangan asosiy vazifalar bu mamlakatda xalqaro standartlar darajasida tan olinadigan sifatli farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini texnik tomondan xalqaro andozalarga muvofiqlashtirish, farmasevtika korxonalari mahsulotlari muomalasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va ular tartibini takomillashtirish, jumladan farmasevtika mahsulotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalari, litsenziya olish tartiblari, tadqiqot ishlarini o‘tkazish tartib-qoidalari, soha bo‘yicha yangi o‘quv kurslarini tashkil etish bo‘lib hisoblanadi. Soha oldidagi bu kabi dolzarb vazifalar bugungi kunda mamlakatda faoliyat ko‘rsatayotgan farmasevtika korxonalari oldida muayyan va aniq vazifalarni ko‘ndalang qo‘yadi. Zotan, farmasevtika korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini har tomonlama to‘g‘ri tashkil etish, ularda ishlab chiqariladigan farmasevtika mahsulotlarining sifatini xalqaro standartlard belgilangan normalarga moslashtirish, hukumatning aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ularning farovon turmush tarzini shakllantirishga yordam berish borasidagi ijtimoiy siyosatini amalga

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Dori vositalari va tibbiy jihozlar muomalasini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 2025 yil 19 avgust. PF-137-son.

oshirish maqsadidan kelib chiqqan holda farmasevtika mahsulotlari narxini optimallashtirish, bunda korxonada ishlab chiqariladigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish xarajatlarini to‘g‘ri boshqarish orqali farmasevtika mahsulotlari tannarxini pasaytirishga erishish hamda korxona xarajatlari buxgalteriya hisobini aniq tashkil etish va yuritish, qolaversa, korxonaning kelgusi faoliyatlarini yanada rivojlantirish uchun eng asosiy omillardan hisoblanadigan ularning daromad va foyda ko‘rsatkichlarini oshirish, ushbu ko‘rsatkichlarning buxgalteriya hisobini to‘g‘ri yuritish, boshqaruv xodimlarining bu boradagi axborotlarni olishlari va strategik muhim qarorlar qabul qilishlari uchun hisobot shakllarini ishlab chiqish, xorijiy investorlarning ishonchini oqlaydigan va kelgusida yanada ko‘proq investitsiyalarni jalb qilinishiga sabab bo‘ladigan xalqaro standartlarga mos keladigan moliyaviy hisobot shakllariga ilovalarni ishlab chiqish va shu kabi boshqa boshqa vazifalar bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Aynan, ushbu jihatlar farmasevtika korxonalari faoliyatlari, jumladan mazkur tarmoq korxonalarining daromadlari va xarajatlari buxgalteriya hisobini tadqiq etishni o‘z oldimizga maqsad qilib belgilab olishimizga turtki bo‘ldi.

Farmasevtika korxonalari buxgalteriya hisobi oldidagi asosiy muammolardan biri ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflanadigan xarajatlar masalasidir. Ushbu korxonalar innovatsion dori vositalarini kashf etish va ishlab chiqish jarayoniga katta miqdorda mablag‘ ajratmoqda. GAAP talabiga ko‘ra, ilmiy-tadqiqot xarajatlarini to‘g‘ri identifikatsiya qilish va tasniflash moliyaviy ma’lumotni shaffof tarzda taqdim etish juda muhimdir. Ushbu shaffoflik manfaatdor tomonlarga ishonch bag‘ishlaydi, chunki u tadqiqot va ishlanmalarga qanchalik ko‘p sarflanganligi haqidagi haqiqiy axborotni ochib beradi.

Xorijiy kompaniyalarda, xususan “Farmasevtika sohasida inventarizatsiyani boshqarish juda muhim, chunki uning mahsulotlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega, bu esa ular uchun inventarizatsiyani baholashning

maxsus yondashuvlarini amalga oshirishni talab qiladi”[2], deb ta’kidlanadi. Demak, farmasevtika korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritishning yana bir dolzarb jihati shundaki, unda tovar-moddiy zaxiralarini baholash va ularni inventarizatsiya qilish jarayonlari hisoblanadi. Chunki, ushbu soha korxonalarida tovar-moddiy zaxiralari ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning yaroqlilik muddatini hamda mahsulotlarni saqlab turish jarayonlarini alohida hisobga olish va nazorat qilish lozim bo‘ladi. Shu bois, farmasevtika korxonalarida tovar-moddiy zaxiralarini to‘g‘ri baholash, bunda muqobil baholash usullarini tanlash, shuningdek tovar-moddiy zaxiralarini inventarizatsiya qilish jarayonlarini xalqaro talablarga muvofiq holda tashkil etish hamda ushbu jarayonlar natijalarini hisob va hisobotlarda yoritish masalalari muhim hisoblanadi. Ushbu masalalarning farmasevtika korxonalarida to‘g‘ri hal etilishi hisobotlarda korxona aktivlarining haqqoniy qiymatlarda yoritilishini ta’minlaydi.

Xorijlik olimlardan V.V.Gorlov farmasevtika tarmoqlarida boshqaruv hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil etish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borgan bo‘lib, ushbu ilmiy-tadqiqot ishida farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari xarajatlarini boshqarish, xarajatlarni boshqarishda “standart-kost” va “direkt-kosting” tizimini qo‘llashning zaruriyati, shuningdek farmasevtika tarmoqlarida daromadlar boshqaruv hisobi metodologiyasi, farmasevtika mahsulotlarini sotish jarayonlarini prognozlashtirish, farmasevtika korxonalarida ichki nazorat hisobini tashkil etish, farmasevtika mahsulotlarini saqlash hisobi va uni ichki nazorat tizimi tadqiq etilgan. Olimning fikricha “Farmasevtika sanoati xalq xo‘jaligida o‘ziga xos o‘rinni egallab, mahsulotning ijtimoiy yo‘nalishi va ahamiyatini belgilab beradi. Farmasevtika sanoatining o‘ziga xos xususiyatlariga mamlakatdagi

[2] https://uk.meruaccounting.com/accounting-for-pharmaceutical-companies/

iqtisodiy o‘zgarishlardan qat’iy nazar barqaror, yuqori ishlab chiqarish sur’atlari va foyda o‘sishi kiradi”[3].

Shuningdek, boshqa adabiyotlarda turli tarmoq korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va ularni buxgalteriya hisobida qayd etishga doir turli xil yondashuvlar keltirilgan. Bular jumlasiga yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati va ularning buxgalteriya hisobini tadqiq etgan B.F.Boronovning ilmiy-izlanishlarini misol qilib keltirish mumkin. Olimning fikricha, “yog‘-moy mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlari o‘ta murakkab jarayonlardan biri bo‘lib, ushbu jarayonlarni ichki va tashqi axborot foydalanuvchilar uchun hisob va hisobotda shaffof aks ettirish buxgalteriya hisobining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi”[4]. Shu bois, ushbu tadqiqot ishida yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish jarayonini to‘rtta bosqichga ajratish taklif etilgan. Ular birlamchi ishlov berish, tozalash, hidsizlantirish va qadoqlash bosqichlari hisoblanib, buxgalteriya hisobida ushbu bosqichlarda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar turlicha tan olinadi, degan xulosaga kelingan.

Tadqiqot ishida farmasevtika korxonalarida xarajatlar buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritilishini optimallashtirish maqsadida mazkur tarmoq sub’ektlarida amalga oshiriladigan xarajatlarni alohida bosqichlarga ajratishni lozim deb topdik. Tadqiqotlar natijasida quyida keltirilgan tavsiyalarni ishlab chiqdik:

[3] Gorlov V.V. Konsepsiya formirovaniya upravlencheskogo ucheta i organizatsiya vnutrennego kontrolya na predpriyatiyax farmasevticheskoy otrasli. Avtoreferat dissertatsi na soiskanie uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. – Oryol: 2014. 48-s.

[4] Boronov B.F. Yog‘-moy sanoati mahsulotlari va ularni ishlab chiqarish bosqichlari tasnifi. // Iqtisodiyot va ta’lim. – Toshkent, 2022. - № 5. 247-253-betlar.



1-rasm. Farmasevtika korxonalarida biznes jarayonlari buxgalteriya hisobini “4P” (four process) modeli orqali tashkil etish bosqichlari[5]

Farmasevtika korxonalarida asosiy faoliyat bo‘yicha jarayonlarni biz tomonimizdan tavsiya etilgan bosqichlarga ajratgan holda buxgalteriya hisobini yuritish ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning xarajatlarini to‘g‘ri boshqarishga, xarajatlar ustidan to‘liq nazorat o‘rnatishga, asosiy faoliyat natijalarini hisobotlarda aniq aks ettirish orqali korxona boshqaruvchilarining moliyaviy-boshqaruv faoliyatlarini yanada optimallashtirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

[5] Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, farmasevtika korxonalarida asosiy faoliyatga doir xarajatlarni aniqlash bo‘yicha biz tomonimizdan quyidagi formulalar ishlab chiqildi:

$$\mathbf{TBX = XMXX + XMEX + XMSX + XMLX} \quad (1)^{6}$$

Bunda, TBX – ta’minot bosqichi xarajatlari; XMXX – xom ashyo va materiallarni xarid qilish jarayoni bo‘yicha xarajatlar; XMEX – xom ashyo va materiallarni asosiy omborga yetkazish jarayoni bo‘yicha xarajatlar; XMSX – xom ashyo va materiallarni asosiy omborda saqlash jarayoni bo‘yicha xarajatlar; XMLX – xom ashyo va materiallarni laboratoriya sinovlaridan o‘tkazish jarayoni bo‘yicha xarajatlar.

$$\mathbf{IBX = YoIX + AIX + OLX + FQX} \quad (2)^{7}$$

Bunda, IBX – ishlab chiqarish bosqichi xarajatlari; YoIX – yordamchi ishlab chiqarish jarayoni bo‘yicha xarajatlar; AIX – asosiy ishlab chiqarish jarayoni bo‘yicha xarajatlar; OLX – oraliq laboratoriya sinovlaridan o‘tkazish jarayoni bo‘yicha xarajatlar; FQX – farmasevtika mahsulotlarini qadoqlash jarayoni bo‘yicha xarajatlar.

$$\mathbf{SBX = FSX + FLX + NTX + FRX} \quad (3)^{8}$$

Bunda, SBX – sotish bosqichi xarajatlari; FSX – farmasevtika mahsulotlarini saqlash jarayoni bo‘yicha xarajatlar; FLX – farmasevtika mahsulotlarini laboratoriya sinovlaridan o‘tkazish jarayoni bo‘yicha xarajatlar; NTX – sotish va sifat nazorati bilan bog‘liq nazorat tadbirlari jarayoni bo‘yicha xarajatlar; FRX – farmasevtika mahsulotlarini sotish jarayoni bo‘yicha xarajatlar.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan mazkur formulalar farmasevtika korxonalarida asosiy faoliyat jarayonlari bo‘yicha xarajatlarni to‘g‘ri aniqlashga, farmasevtika mahsulotlari tannarxini hisob-kitob qilishga ko‘maklashadi deb hisoblaymiz.

[6] Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.
[7] Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.
[8] Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

Farmasevtika korxonalarida amalga oshirilgan xarajatlarni biz tomonimizdan tavsiya etilgan bosqichlarga ajratish orqali ularning buxgalteriya hisobini yuritish xarajatlar hisobini to‘g‘ri va aniq yuritishga, ularni boshqaruv hisobotlarida real aks ettirishga xizmat qiladi. Buning natijasida xarajatlarni har bir bosqich va jarayon kesimida hisobga olish, ularga doir tizimli axborotlarni shakllantirish orqali boshqaruv qarorlari samadorligini oshirish hamda ichki nazoratni kuchaytirishga erishiladi deb hisoblaymiz. Shuningdek, ushbu taklifning amalda qo‘llanilishi buxgalteriya hisobida farmasevtika korxonalari asosiy faoliyatiga doir xarajatlarini to‘g‘ri aks ettirishga, farmasevtika mahsulotlari tannarxini hisob-kitob qilishning aniqligini oshirishga hamda axborotlarning ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa operatsion boshqaruv qarorlari sifatini yaxshilashga hamda operatsion faoliyat samaradorligini oshirish imkonini beradi deb hisoblaymiz. Tadqiqotlarimiz davomida ushbu xarajatlarni ularning har bir bosqichida alohida tadqiq etishni lozim deb topdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Dori vositalari va tibbiy jihozlar muomalasini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 2025 yil 19 avgust. PF-137-son.

2. Gorlov V.V. Konsepsiya formirovaniya upravlencheskogo ucheta i organizatsiya vnutrennego kontrolya na predpriyatiyax farmasevticheskoy otrasli. Avtoreferat dissertatsi na soiskanie uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. – Oryol: 2014. 48-s.

3. Boronov, B. (2022). MAHSULOT TANNARXINI HISOBLAShDA UMUMIShLAB ChIQARISh XARAJATLARINING O‘RNI VA ULARNING HISOBINI TAKOMILLAShTIRISh. Economics and Innovative Technologies, 10(6), 31-42.

4. Boronov, B. F. (2022). YoG‘-MOY MAHSULOTLARI IShLAB ChIQARISh XARAJATLARI HISOBINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLAShTIRISh. *ISSN 2181-3191 VOLUME 1, ISSUE 7 OCTOBER 2022*, 202284.

5. https://uk.meruaccounting.com/accounting-for-pharmaceutical-companies/